



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDА GENDER IDENTIFIKATSİYASINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING AHAMIYATI

Muallif: Razzoqova Maxliyoxon Qosimjonovna¹

Affiliatsiya: Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14504808>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lrim tashkilotida musiqiy bilimlar orqali bolalar o'z jinsga bog'liq bo'lgan dastlabki qarashlarini shakllantirishdagi ahamiyatining muhimlik darajasi, jinsiy stereotiplarning musiqa orqali singdirilishi va musiqa bolalarning jinsiy identifikatiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, stereotip, identifikator, gender, maktabgacha ta'lrim tizimi.

KIRISH

Musiqa san'ati shunday san'at turiki, u insonlarni tuyg'ulari, kechinmalari, emotsiyonal hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman tuyg'u va kechinmalar uyg'otishining o'zini mo'jiza deya olishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida musiqa o'ziga xos o'ringa ega. Musiqa, qo'shiqlar va raqs orqali bolalar nafaqat o'z his-tuyg'ularini ifodalashni, balki gender rollarini ham anglashga o'rganadilar. Shu sababdan, musiqa bolalarning gender identifikatsiyasini shakllantirishda muhim ta'sir kuchiga ega bo'lib, ular orasida erkak va ayol rollarini tan olish, hurmat qilish va o'z o'rnnini anglash jarayonida yordam beradi. Usiqaning estetik tarbiyatagi roli ham beiqiyosdir.

ASOSIY QISM

Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasi jarayoni juda murakkab va nozik hisoblanadi. Ushbu yoshda bolalar o'zlarini va atrofdagi insonlarni jinsiy belgilari ko'ra tan olishga, jinsiy rollarni anglashga intiladilar. Ular jamiyatda mavjud bo'lgan gender stereotiplarini o'rganadilar va o'zlari uchun mos bo'lgan gender rollini aniqlay boshlaydilar. Aynan shu jarayonda musiqa bolalarning fikrlash, his qilish va o'ziga ishonch hosil qilishlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa va raqsda ba'zi harakatlar va obrazlar orqali gender rollari namoyon bo'ladi. Masalan, qo'shiqlar matni, raqlarda ifodalangan harakatlar va usiqaning o'zi erkak va ayol rollariga xos xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Qo'shiqlar orqali bolalar o'ziga xos qahramonlarni tasavvur qilib, o'z jinsiy rollini anglashga harakat qiladi. Shu yo'l bilan, ular o'zlariga xos sifatlar va xulq-atvorlarni rivojlantirishda yordam beradi. Masalan, qahramonlikka oid bo'lgan qo'shiqlar o'g'il bolalarga jasorat va kuch sifatlarini tasavvur

qilishga yordam bersa, qiz bolalar esa mehribonlik, hamdardlik sifatlarini tushunib boradilar. Shu tarzda, musiqa ularning gender roli to'g'risida turli tasavvurlarni shakllantiradi va ularni o'zlariga mos va to'g'ri keladigan jihatlarni o'rganishni boshlaydilar.

Musiqa san'ati bolalarning his-tuyg'ularini ifodalash va o'zligini anglashida katta yordam beradi. Har xil musiqa turlari bolalarning o'ziga xos his-tuyg'ularini uyg'otib, ularni o'z jinsiga xos rolni qabul qilish va hurmat qilishni o'rgatadi. Misol uchun, romantik va sokin musiqa bolalarda mehr-muhabbat va qayg'urishni kuchaytirsa, jo'shqin va hayajonli musiqa esa shijoat va kuch hislarini rivojlantirishi mumkin. Bolalar bu hislarni o'z genderlari bilan bog'lash orqali gender identifikatsiyasini kuchaytiradilar.

Musiqa orqali gender stereotiplar mustahkamlanishi yoki aksincha holat bilan, bartaraf etilishi mumkin. Musiqiy faoliyatlar orqali bolalar o'zlariga xos sifatlarni rivojlantirishi mumkin, ammo bu yerda tanlanadigan qo'shiqlar va ularning mazmuni muhim o'rinni tutadi. Masalan, bolalar uchun ijobiy, sog'lom gender tasavvurlarni shakllantiradigan qo'shiqlar ularga ham erkaklar, ham ayollar o'ziga xos, kuchli va mehribon bo'lishi mumkinligini tushuntiradi. Shu yo'l bilan ular nafaqat o'z jinsini hurmat qilishni, balki qarama-qarshi jinsga ham hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

Musiqa bolalarda o'zlarini qabul qilish, jismoniy va emotsiyonal jihatdan o'ziga bo'lgan ishonch va hurmat shakllanishida yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Jinsiy rol va identifikatsiya bilan bog'liq musiqiy mashg'ulotlar orqali ular o'z tanasi, qiyofasi va shaxsiyati haqida ijobiy tasavvurlar hosil qiladi. Shu bilan birga, ular boshqa insonlar bilan o'zaro muloqot qilishda va ularning gender roli va his-tuyg'ulariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Musiqa jamoaviy faoliyat bo'lganligi sababli, bolalar qo'shiqlar va raqlar orqali o'z yaqinlari va do'stlari bilan birga ijro etishga o'rganadilar. Bu esa ularning ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda bolalar bir-biriga mehr ko'rsatadi, hamjihatlikda faoliyat olib boradi va ijtimoiy jarayonlarda gender rollarini tushunishga imkon yaratadi.

Maktabgacha ta'lrim tizimidagi tarbiyalash muammolarini hal qilish, asosan, bolalar umumiyligi tajribalar bilan qamrab olingen jamoaviy qo'shiq, raqs, o'yinlar orqali yordam beradi. Qo'shiq kuylash ishtirokchilardan birlashgan sa'y-harakatlarni talab qiladi. Umumiyligi tajribalar individual rivojlanish uchun qulay zamin yaratadi. Masalan, umumiyligi ishtiyoq, ijro quvonchi, qo'rkoq va qat'iyatsiz bolalarni faollashtiradi. Bunday bolaga o'z o'rtoqlariga yordam berishni taklif qilish mumkin, shu bilan kamtarlikni rivojlantiradi va shu bilan birga individual qobiliyatlarni rivojlantiradi. Musiqa mashg'ulotlari maktabgacha yoshdagi bolaning xatti-harakatlarining umumiyligi madaniyatiga ta'sir qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini shakllantirish jarayoni murakkab va muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda musiqa san'ati o'ta zarur vosita sifatida namoyon bo'ladi. Musiqa nafaqat bolalarning emotsiyonal va ijodiy rivojlanishiga, balki ularning jinsiy rollarni anglash, mustahkamlash va gender stereotiplarni tushunishiga yordam beradi. Bolalar musiqiy faoliyat orqali

nafaqat o'z his-tuyg'ularini ifoda etadi, balki o'z jinsiga xos xulq-atvorni shakllantiradi, jamiyatdagi gender rollariga hurmat bilan qarashni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Yusupova N. "Musiqa savodi metodikasi va ritmika." Toshkent: Musiqa, 2010.
Darslik.

Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika." Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2013.
Darslik.

Mamadaliyev Zokirjon. "4-5 yoshli bolalar uchun o'zbek milliy raqs elementlari turlarini ochib berish." Jizzax davlat pedagogika instituti, 2020.

Asqarova Dilafruz. "Maktabgacha yoshdag'i bolalarda va oilada gender xususiyatlarini shakllantirish omillari." Zenodo, 2022.

О.П.Радынова, А.И.Катинене, М.Л.Палавандишивили. Музыкальное воспитание дошкольников. Учебное пособие - Москва, 1998 г.

